

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA SAMARQANDDA QURILISH MADANIYATI

D.B.Murtazaev

NDPI “O‘zbekiston tarixi kafedrasi katta o‘qituvchisi

*Amir Temur kim edi? U, birinchi navbatda ulug' bunyodkor shaxs edi. Samarqanddagi obidalarini, Shahrisabzdagi yodgorliklarni kim qurdi? Turkistondagi Yassaviy maqbarasini kim tikladi? Amir Temur va uning avlodlari zamonida Afg'oniston, Eron, Hindiston hududlarida amalga oshirilgan obodonchilik, me'morchilik ishlarini aytmaysizmi.*¹

I.Karimov

O'rta asr qurilishi san'ati tarixi tadqiqotchi-olimlarining fikricha, XIV asrning oxiri va XV asrning boshlarida Movaraunnahrda O'rta va Yaqin Sharq arxitekturasining eng yahshi yutuqlarini o'zida ifodalagan, original, o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Aynan shu vaqtda Samarqand shahri yanada gullab, yangidan shakllandi.

Bunga sabab, Amir Temur butun umr davomida Samarqandni go'zal hamda markaziy shaharga aylantirishni asosiy ishi va vazifasi deb bildi. Amirning fikricha, aynan Samarqand dunyoning eng dongdor shahri bo'lib qolishi kerak edi.

Sharafuddin Ali Yazdiy ham, Ryui Gonzales de Klavixo ham shu haqda xabar qiladilar. Masalan Ryui Gonzales de Klavixo bunday yozgan edi: “Samarqand shahrida Xitoydan, Hindiston, Tataristondan va boshqa turli joylardan keltirilgan hamda Samarqand podsholigining o'zida ishlangan har xil mollar sotiladi... Samarqandda barcha narsalarni tartib bilan sotish rasta va do'konlar qurishni buyurdi. Ko'chani keng olib, uning har ikki tomoniga savdo do'konlari qurishdi; har bir do'kon oldida oq toshlar bilan qoplangan baland kursilar qo'yildi. Barcha do'konlar ikki qavatli bo'lib, ularning tepasi esa butun ko'cha bo'ylab gumbaz qilib qoplab olingan, yorug'lik tushsin uchun gumbaz sahnida derazalar o'rnatilgan edi.”²

Temur va Temuriylar boshqaruvi davrida Samarqandda Kuksaroy, Binixonim madrasasi, Jome masjidi, Shohizinda ansamblida bir necha maqbaralar qurildi. Bundan tashqari Samarqand atrofida bog'-rog'lari bo'lgan Bog'i Chinor, Bog'i Dilkusho, Bog'i Bihisht, Bog'i Nav kabi madaniy dam olish majmualari qad ko'tardi. Qolaversa yo'l va ko'priklar qurilishiga alohida e'tibor berildi. Masalan Ko'hak-Zarafshon, Amudaryo va Sirdaryoga ko'priklar qurilishi bunga dalil bo'la oladi. Ushbu barcha qurilish ishlariga mahalliy hamda chet el me'mor hamda ustalari jalb etildi.

Amir Temurning ushbu qurilish hamda qayta ta'mirlash ishlariga shaxsan o'zi rahbarlik, tashabbuskorlik, qolaversa homiylik qilgani, to'g'risida uning mashhur “Tuzukoti Temuriy” asaridan bilib olish mumkin. Masalan asarda qo'yidagilarni o'qiymiz: “Xarob bo'lgan yerlar egasiz bo'lsa, xolisa (davlat yerlarini

¹ I.Karimov. “Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch”.T.: Ma'naviyat. 2008.

² Рюи Гонзалес де Клавихо. Дневник путешествия ко двору Тимура в Самарканде в 1403-1406 гг. И.И.Средневский. “Имперская Академия наук”,1881.стр.316

boshqaruvchi mahkama) tarfidan obod qilinsin. Agar egasi bo'lsayu obod qilishga qurbi yetmasa, unga turli asboblari va kerakli narsalar bersinlar, toki o'z yerini obod qilib olsin. Yana amr qildimki, xarob bo'lib yotgan yerlarda korizlar qursinlar, buzilgan ko'priklarni tuzatsinlar, ariqlar va daryolar ustiga ko'priklar solsinlar, yo'l ustida, har bir manzilgohga rabotlar qursinlar"³

Samarqandda Temur hamda Temuriylar tomonidan qurilgan yodgorliklarning hammasi ham bizgacha yetib kelmagan. Masalan Samarqand qal'asining chegarasida 1371-1372 yillarda mashhur shayx Nuriddin Basir yoki Qutbi Chahorduhum maqbarasi qurilgan. Ammo bu yodgorlik bizning vaqtgacha yetib kelmadi.⁴

Amir Temur boshqa Temuriy shahzodalardan farqli ularoq deyarli doimo qurilajak obidani baquvvat va ayniqsa baland bo'lishiga e'tibor qaratgan. Shu maqsadda Amir Temur va Temuriylar Samarqand va uning atrofida bunyod etgan me'moriy obidalar nafaqat bir shaharning, balki butun bir mamlakatning kuch qudratini ko'rsatib turgan. Zero Temurning: "Bizning kuch qudratimizga ishonmasang, biz qurdirgan imoratlarga boq!", ma'no-mazmundagi so'zlari uning hashamatli va ko'rkam binolar qurilishining sabablaridan biridir. Maqolada ushbu me'moriy obidalarining ayrimlarini ta'riflab o'tmoqchimiz.

Shohizinda maqbaralar majmuasi- Samarqandning Afrosiyob tepaligi janubida barpo qilingan bu majmuaga yigirmadan ziyod maqbara, masjid, xonaqoh va chillaxonalar kiradi. Ularning ichida eng qadimiysi - Muhammad (s.a.v.)ning amakivachchalari Qusam ibn Abbosning maqbarasi. Inshootlarning aksari XIV - XV asrlarga mansub. Majmua tarkibida sohibqiron Amir Temurning singlisi Shirinbeka oqa, opasi Turkan oqa va xotini Tuman oqalarning maqbaralari ham mavjud. Shohizinda majmuasi ta'mirlanishi, undagi yangi maqbaralarning qurilishi hamda undagi obodonlashtirish masalasi nafaqat Temuriy shahzodalar, balki Temuriy malikalarning diqqat e'tiborida bo'lgan. Hususan majmuada Temurning opasi Turkan oqa tomonidan qurilgan Shodimulk oqa maqbarasi, Tug'lu Tekinning o'g'li Amir Husayn (1376 yil) maqbarasi, Temurning singlisi Shirinbeka oqa maqbarasi (1386 yil) va Amirzoda maqbarasi (1386 yil) to'rt daxmadan iborat kompleksni tashkil etadi. Ushbu dahmalar barchasi bir-biriga to'g'rima-to'g'ri joylashgan. 1404-1405 yillarda Temurning sevimli xotini Tuman oqa tashabbusi bilan Shohizindaning shimoliy qismi qurib bitirildi.

Bibixonim masjidi- Amir Temur 1399-1404 yillari qurib bitirildi. Machit qurilishi uchun 1399 yili Hindiston yurishida qo'lga tushgan boyliklari hamda Bibixonimning shahsiy boyliklari sarf etildi. Bu qurilishda mohir ustalar va me'morlar mehnat qilishdi. Ushbu yodgorlik Temurning yosh, suyukli xotini Bibixonim nomi bilan mashhur. Amir Temurning katta xotini Bibixonim Chig'atoy ulusi xoni - Qozonxonning qizidir. U barcha malikalardan ulug' hisoblanib, "Katta xonim" yoki "Bibixonim", degan unvonga loyiq bo'lgan. Bibixonim zamonasining yuksak idrokli, tadbirli, maslahatgo'y, yetuk aql-zakovatli ayollaridan edi.

³ Ahmedov B. Tarixdan saboqlar.T.: "O'qituvchi", 1994. 305-bet.

⁴ Muminov I.M."Samarqand tarixi".I-tom.T.: "Fan", 1971.243-bet.

Go'ri Amir maqbarasi- Amir Temur nabirasi Muhammad Sultonning fojiali o'limidan so'ng 1403 yili ushbu maqbarani qurishga farmon bergan. Temuriylar sulolasiga mansub kishilar - avvalo Sohibqironning o'zi, uning piri Said Baraka, o'g'illari Umarshayx, Mironshoh va Shohruh, nabiralari Muhammad Sulton, Ulug'bek va boshqalar dafn etilganlar. Qabrlarning turgan joyi Ulug'bek davrida o'ymakor marmar panjara bilan o'raldi. 1424 yili uning buyrug'i bilan maqbaraning sharq tomonida to'rt qubballi galereya qurildi.⁵ Maqbara 1991-1996 yillari katta ta'mir qilindi.

Ulug'bek madrasasi- Samarqanddagi Registon majmuasining muhim qismini tashkil etadigan Ulug'bek madrasasi 1417-1420 yillari nihoyatda mahobatli qilib qurilgan. Samarqand ko'rki bo'lmish Registon maydoni Mirzo Ulug'bek davrida vujudga kelgan. Ulug'bekning podshohlik davrida Movarounnahrda, ayniqsa, Samarqandda iqtisod va tijorat, fan va madaniyat, me'morlik yuksaldi. "Mirzo Ulug'bek o'z madrasasini qurdirib bitkazkandan keyin oradan to'rt yil o'tgach, Qozizoda Rumiy, Mavlono G'iyosiddin Jamshid va muiniddin Koshiy bilan maslahatlashib, Ko'hak etagida, Obirahmat soyining bo'yida rasadxona binosini qurdirdi. Bu binoning atrofida baland hujralar qurildi, rasadxona joylashgan tepalik etaklarida ajoyib bog' barpo etildi. Ushbu bog'da Ulug'bek o'zining ko'p vaqtini o'tkazardi".⁶ Ushbu ma'lumotni Bobur asarlarida ham uchratish mumkin.

Ruhobod (Shayx Burxoniddin Sog'arjiy) maqbarasi- XIV asrga oid me'moriy yodgorlik. Amir Temur maqbarasining shimolida joylashgan, chorqirra shaklidagi gumbazli bino. Ruhobodning hashamatli binosi XVI asrning 80-yillarida shayx Burhoniddin Sog'arjiy qabri ustiga qurilgan. Shayx Burxoniddin Sog'arjiy X asrda Somoniylar davrida yashab, avliyolikda Qutb pog'onasiga ko'tarilgan zotdir. Uning nasl-nasabi Umar ibn Xattobga borib taqaladi. volidiya " asari xalq ichida mashhur bo'lgan.

Afsus, ota bobolarimiz tomonidan meros bo'lib qolgan ushbu qadimiy va noyob me'moriy yodgorliklarning hammasi ham bizga yetib kelmadi. Saqlanib qolganlari ham Chor Rossiyasi zulmida hamda Sobiq Ittifoq boshqaruvi davrida tashlandiq hamda yo'q bo'lish holatiga tushdi.

Yaratganga shukurki, mustaqillik bizga nafaqat kelajagimizni o'z qo'limiz bilan qurish imkoniyatini, balki shu bilan birga tariximizni qayta tiklashga ham yo'l ochib berdi. Prezident hamda hukumatimiz tashabbusi bilan Samarqandda deyarli barcha tarixiy obidalar qayta ta'mirlandi.

1996 yili Amir Temur bobomiz tavalludining 660 yilligi, Samarqand shahrining 2500 yillik yubileyi munosabati bilan Samarqand va Shahrisabz shahrlarida sohibqironga atab haykal o'rnatish hamda obidalarni qayta ta'mirlash bo'yicha amaliy ishlar amalga oshirildi. Imom ad-Doramiy maqbarasi Prezident boshchiligidagi maqbara qabri atrofi obod etilib, ziyoratgohga aylantirildi. Prezident tomonidan Samarqanddagi tarixiy obidalarni qayta ta'mirlash maqsadida bir nechta farmoyish va ko'rsatmalari chiqdi. Masalan 2004 yil Shohizinda kompleksini qayta ta'mirlash hamda uning atrofini ko'kalamzorlashtirilishiga oid farmoni

⁵ Muminov I.M. "Samarqand tarixi". I-tom. T.: "Fan", 1971. 247-bet.

⁶ O'sha yerda. 223-bet.

Samarqand go'zalligini mutlaqo o'zgartirib yubordi. Shahar so'ngi yillarda tanib bo'lmas darajada ko'rkamlilik va nafislikka ega bo'lib bormoqda. Qolaversa so'ngi yillarda bir nechta yangi obidalar qurildi. Masalan ushbu ikki obidaning qurilishi, ularning kimga atab qurilganligi, hamda ushbu shahxslarning ijtimoiy ahamiyati haqida to'xtalib o'tsak. Ulardan:

Imom al-Moturidiy maqbarasi- Prezidentimiz Islom Karimov tashabbusi bilan maqbara 2000 yilda Samarqandning Chokardiza qabristonida bunyod etilgan. Buyuk vatandoshimiz Abu Mansur al-Moturidiy ilmiy-diniy merosining xalqimiz ma'naviy-ruhiy hayotidagi o'rni beqiyosdir. U Islom olamida "Imom al-huda" (Hidoyatga boshlovchi imom) va "Imom al-mutakallimin" (Kalom olimlarining imomi) degan sharaflilar unvonlar bilan mashhur bo'lgan. Ismlari Muhammad, "Moturidiy" taxallusini Samarqandning Moturid qishlog'ida tavallud topganliklari uchun olganlar. Manbalarning dalolat berishicha, Al-Moturidiy fiqh va kalom ilmi bilan yoshlikdanoq qiziqib, hanafiy mazhabi olimlaridan tahsil olgan. Ko'plab mashhur faqih va muhaddislar bilan muloqotda bo'lgan, butun umri davomida shu sohaga oid ko'plab asarlar yozib qoldirgan. "Kitob at-tavhid", Kitob maqomat", "Tavilot ahl as-sunna" asarlari shular jumlasidandir.

Imom ad-Doramiy maqbarasi- Maqbara 2000 yil bino qilingan. Hadis ilmining sultoni Imom al-Buxoriyning ustozlaridan biri Imom Abdurahmon ad-Doramiy as-Samarqandiy hijriy 181 (mil. 798) yili Samarqandning qadimiy Doram mavze'ida tavallud topgan. Yoshligidanoq Islom fiqhshunosligi va hadisshunosligi bilan mashg'ul bo'lgan. Makka, Madina, Misr, Shom, Bag'dod, Xuroson kabi yurtlarda turli olimlardan saboq olgan. Imom ad-Doramiy ko'plab asarlar yozgan. Uni dunyoga mashhur etgan asari esa "Musnad" (Sunan) nomli hadislar to'plamidir. Mazkur kitobni "Musnadi Doramiy" yoki "Doramiy sunnatlari", deb ham atashadi. Imom ad-Doramiy hijriy 255 (mil. 869) yilda vafot etgan.

Bugungi kunda Samarqandning mahobatli ko'rinishi, uni bezab turgan bu masjid va maqbaralar nafaqat o'zbek xalqini balki chet ellik mehmonlarni ham o'ziga chorlamoqda. Zero, I.Karimov ta'kidlaganidek, "Bugungi kunda poytaxtimizning Amir Temur xiyoboniga, Samarqanddagi Kuksaroy, Shahrisabzdagi Oqsaroy maydoniga xoh erta tongda, xoh kechqurun – qachonki borib qaramang, chindan ham Sohibqiron siymosida doimo nur jilvalanib turganini ko'rishimiz mumkin"⁷

O'tmishimizni avaylash, tarixiy obidalarni e'zozlash, asori-atiqalarni, qolaversa, xalqimizning buyuk o'tmishi, yashayotgan ijtimoiy hayoti va kelajagi bilan bevosita bog'liqdir. Bu xususiyatlar millatimiz va xalqimizning milliy qadriyati bo'lib, azaldan ularning qon-qoniga singib ketgan. Shuni unutmasligimiz kerakki, ushbu obidalarni qayta ta'mirlash, tiklash va boshqa say'i-harakatlar zahirida eng asosiysi ota-bobolarimizga chuqur hurmat va ehtirom hamda ularga nisbatan minnatdorchilik hissi yotishi kerak.

⁷ I.Karimov. "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch". T.: Ma'naviyat. 2008. 154-bet.